PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

JO‘RAYEVA GULBAHOR ABDUG‘AFFOR QIZI

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Professional ta’lim yo‘nalishlari misolida)

13.00.05 – Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K:378.015.31

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

JO'RAYEVA GULBAHOR ABDUG'AFFOR QIZI

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Professional ta'lim yo'nalishlari misolida)

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5256 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.ipitvet.uz) da hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ximmataliyev Do‘stnazar Omonovich** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Muslimov Narzulla Alixanovich** pedagogika fanlari doktori, professor
	G‘afforov Feruz Hasanovich pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta’limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “____”____soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (+998 71) 227 19 24. E-mail: pedagogikinnovasiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta’limni rivojlantirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_________-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (+998 71) 227 19 24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___”__________kuni tarqatildi.
(2025 yil_____________ dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi)

R.X.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor, akademik

S.Yu.Ashurova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

H.Sh.Kadirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonlarining shiddat bilan rivojlanishi mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasini ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. ISSCI (The International Society for the Study of Creativity and Innovation) – Ijodkorlik va innovatsiyalarni tadqiq qilish xalqaro jamiyati ijroiya kengashi tomonidan global miqyosdagi real hayot muammolarini hal etishga bag‘ishlangan ilmiy, fanlararo va transmilliy izlanishlarning dolzarbligini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar doirasida ijodkorlikka oid keng qamrovli ilmiy izlanishlar orqali xalqaro hamda turli fan sohalarini qamrab oluvchi hamkorlikni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Yevropa Tadqiqot Universitetlari Ligasi (LERU) esa xalqaro miqyosda raqobatbardosh ilmiy muhitda yuqori darajadagi ta’lim sifatini asosiy qadriyat sifatida e’tirof etuvchi yetakchi universitetlarni birlashtiradi. Mazkur ittifoqqa kiruvchi “Buekers” va “Nugters” universitetlari talabalarni innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va kreativ fikrlashga faol jalb qilish bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv doirasida ilmiy tadqiqot bo‘limlari tomonidan yaratilgan ilmiy salohiyatni madaniyat sohasidagi kreativ imkoniyatlar – ko‘rgazmalar, ilmiy muzeylar va umumiy ilmiy-loyihaviy faoliyatlar bilan integratsiyalash zaruriyati ta’kidlanadi. Bunga ijodiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi[1]. UNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida – “sifatli ta’lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag‘batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal etish, fikrlash hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko‘nikmalarini yuqori darajada egallash”[2] ga asos bo‘lishi alohida ta’kidlangan. Dunyo ta’limiy amaliyoti kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish jarayonini yuqori standartlarga olib chiqish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish va hamkorlik tadqiqotlarini olib borish zaruriyatga aylanganini ko‘rsatmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy sharoitlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning metodologik va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning tizimli modellarini ishlab chiqish, ta’lim mazmuni va sifatini oshirish, raqobatbardosh, yuqori bilim va ko‘nikmalarga ega oliy ma’lumotli pedagoglar tayyorlashda samarador bo‘lgan pedagogik ta’lim innovatsion klasterlarini joriy qilish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqib, professional ta’lim yo‘nalishi talabalarining ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan, interfaol ta’lim metodlaridan va baholash mezonlaridan samarali foydalanish zaruratini taqozo etadi.

Mamlakatimizda professional ta’lim tizimini isloh qilish va professional ta’limning xalqaro andozalarga mosligini ta’minlash borasida izchil ishlar amalga

[1] https://www.leru.org/news/creative-arts-and-research-intensive-universities-a-crucial-partnership

[2] Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

oshirilmoqda. 2022-2026-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish"[3] ustuvor vazifalar etib belgilangan. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish shuningdek, professional ta'lim tizimida zamonaviy fikrlaydigan, innovatsiyalarni qoʻllab quvvatlovchi, raqobat oʻsib borayotgan ta'lim xizmatlari bozorida tabaqalashgan ta'lim dasturlarini taklif eta oladigan mutaxassislarga ehtiyojni oshirmoqda. Shu nuqtayi-nazardan talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-60-sonli Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ""Oʻzbekiston — 2030" strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-158-sonli, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-158-sonli hamda 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari koʻrsatish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF-76-sonli Farmonlari mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot Oʻzbekiston Respublikasi fan hamda texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat, demokratik davlatni ijtimoiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda huquqiy, iqtisodiy, innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish yoʻllari" ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mamlakatimiz pedagog olimlaridan R.X.Djurayev, A.R.Xodjaboyev, Sh.E.Qurbanov, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, Sh.S.Sharipov, Z.K.Ismailova, D.O.Ximmataliyev, J.A.Hamidov, O.X.Turaqulov va boshqalar yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda boʻlajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni qonuniyatlari, tendensiyalari hamda ularni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolarini oʻrgangan[4].

---

[3] https://lex.uz/uz/docs/-5841063

[4] Djurayev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar.–T., 2010. 87 b.; Курбанов Ш.Э. Социально педагогические особенности национальной модели и программы по подготовке кадров.//Дис. доктора пед. наук. –Ташкент: УзНИИПН, 2000. –с. 527.; Muslimov N.A. Boʻlajak kasb ta'limi oʻqituvchilarini kasbiy shakllantirish.//Monografiya.–Toshkent: Fan, 2004.–B.127.; Sharipov Sh.S. Oʻquvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti.//Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2011. –B.15.; Ismailova Z.K. va boshqalar. Maxsus fanlarni oʻqitish metodikasi. –T.: Fan, 2016.; Choriyev R.K. Kasb ta'limi mutaxassislarini dual tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (Texnika oliy ta'lim muassasalarida "Kasb ta'limi" yoʻnalishi misolida).// Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi (DSc) diss.avtoreferati.–T., 2020. –B.67.; Olimov Q.T. Maxsus fanlardan oʻquv adabiyotlar yangi avlodini yaratishning nazariy - uslubiy asoslari.//Ped. fan. dokt. ... dis.–T., 2005. –B. 232.; Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi.//Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. –B.233.; Hamidov J.A. Boʻlajak kasb ta'limi oʻqituvchilarini tayyorlashda oʻqitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qoʻllash texnologiyasi.//Pedagogika fanlari boʻyicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2017. –B.63.; Turakulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik

Bo‘lajak mutaxassislarning ijodkorligini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar pedagog olimlarimiz B.R.Adizov, O.A.Qo‘ysinov, S.Yu.Xaitova, Sh.X.Pozilova, F.M.Sadikova, F.M.Sadriddinova, I.M.Sirojiddinova, G.M.Davronova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan[5].

MDH mamlakatlari olimlaridan V.Slastenin, E.F.Zeyer, V.I.Andreyev, L.V.Antropova, V.P.Bespalko, L.S.Vigotskiy, I.A.Zimnyaya, V.A.Shtoff hamda mamlakatimiz olimlaridan N.A.Muslimov, S.Yu.Ashurova, Z.Sh.To‘xtaeva, F.H.Gaffarov, K.A.Karimov, O.O.Daminov, Yo.R.Najmiddinova, M.P.Imomov, J.R.Turmatov va boshqalar kasbiy kompetentlilikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari bo‘yicha izlanishlar olib borganlar[6].

Tadqiqot muammosiga oid ilmiy izlanishlar va manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosi bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, hozirgi globallashuv, mobillashuv kabi o‘zgarishlar davrida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarni ijodkorligini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida emasligi yaqqol ko‘rinib qolmoqda. Kelajakda mazkur yo‘nalishda ko‘plab vazifalarni amalga oshirish zarurligi, o‘quv dasturlarini ma’no va mazmun jihatidan qayta ko‘rib chiqish va axborot-didaktik materiallarning g‘oyaviy mazmunida bugungi kun va yangilanishlar talablariga javob beradigan mutlaqo yangi avlodini yaratishni taqozo etmoqda.

Dissertasiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

---

ta’minotini takomillashtirish (axborot va kompyuter texnologiyalarga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari) misolida. // Ped. fan. bo‘y. dok. (DSs) diss. – Toshkent, 2018.

[5] Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan.dok.dis. avtoreferati. – Toshkent, 2003. – B. 44.; Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari.//Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.– Toshkent, 2019.–B. 218.; Xaitova Yu.S. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijodiy-kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.– Toshkent,2020.–B.20.; Pozilova Sh.X. Professional ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini kasbiy kreativligini baholash bosqichlari. //Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (Образование и инновационные исследования).–2023.–№10.–B.211–215.–URL: http://interscience.uz; Sadikova F.M. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish (Professional ta’lim soha yo‘nalishlari misolida).// P.f.f.d. (PhD) diss.avtoreferati.–T., 2021.–B.50.; Sadriddinova F.M. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari. // p.f.f.d. (PhD) diss.avtoreferati. Jizzax, 2022.–B. 56.; Sirojiddinova I.M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiyijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish // p.f.f.d. (PhD) diss.avtoreferati.T., 2020.– B.50.; Davronova G.M. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari vositasida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish. // p.f.f.d. (PhD) diss.avtoreferati. Samarqand, 2023. – B.46.

[6] Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Инновацион таълим тизимида компетентли ёндашувни амалга ошириш. // Таълимда инновацион лойиҳа ва дастурлар, 2015. Т. 4. –Б. 6-11.; Зимняя И.А. Базовые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия // Сборник методических семинаров «Россия в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы». – М., 2004.–С. 112-118; Сластенин В.А. и др. Педагогика. // Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. Заведений. / Под ред. В.А. Сластенина. – М.: Академия, 2002.–С. 576.; Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2004. –B.127.; Daminov O.O. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida tayanch kasbiy kompetensiyalarnishakllantirish metodikasini takomillashtirish. // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan. Toshkent, 2020. –B.148.; Najmiddinova Yo.R. Kollej o‘quvchilarida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish // p.f.f.d. dis.avtoreferati. T. 2019. – B.50.; Imomov M.P. Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish // p.f.f.d. (PhD) diss.avtoreferati. T. 2021. –B. 50. ; Turmatov J.R. Kasb ta’limi o‘qituvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasining didaktik ta’minotini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. Toshkent – 2019. –B.203.

tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy tadqiqot rejasining OT-F1-49-raqamli “Talabalarda assertiv xulqni takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” (2017-2021-yy.) mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: talabalarning ijodiy qobiliyatlari mazmunini pedagogik-psixologik jihatdan o‘rganish, ularni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish asosida ijodiy qobiliyatlarni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelni ishlab chiqish va asoslash;

talabalarga “Geodeziya” fanini modulli o‘qitish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

talabalar ijodkorligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlanganlik darajalarini aniqlashning baholash parametrlarini optimallashtirish vositasida metodikaning pedagogik samaradorligini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning mazmuni, shakli, metodlari va vositalari.

Tadqiqotlar usullari. Tadqiqot vazifalarini hal qilishda pedagogik, psixologik, metodik va grafikaga oid adabiyotlarni o‘rganish; nazariy tahlil; pedagogik kuzatish; anketa; modellashtirish, tashhislash; pedagogik tajriba-sinov va matematik statistika metodlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning kasbiy-pedagogik shart-sharoitlari amaliy-ijodiy yondashuvli ta’lim muhitini yaratish, ta’lim mazmuniga ilmiy-tadqiqot faoliyati elementlarini singdirish hamda talabalarning individual ta’lim trayektoriyasida barqaror dinamiklikni ta’minlash asosida aniqlashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning integrativ modeli kompetensiyaviy va tizimli-faoliyatli ta’limning integrativ xususiyatlarini didaktik maqsadlar mazmuniga moslashtirish hamda kasbiy ta’limning o‘quv-kasbiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-loyihalash, tashkiliy-texnologik komponentlari natijadorligini oshirish asosida takomillashtirilgan;

kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish metodikasi “Geodeziya” fani modulini o‘qitishda talabalarning ijodkorlik potensialiga yo‘naltirilgan kasbiy-vaziyatli masalalardan foydalanish va loyihaviy ta’limning intensiv transformatsiyasi muhitida samarali qaytma aloqani ta’minlovchi “MICA” nomli mualliflik ta’lim metodikasidan foydalanish asosida takomillashtirilgan;

talabalar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganligini baholash metodikasi vaziyatni anglash, bashoratli tahlil, ratsional qaror va loyihani amalga oshirish kabi ijodiy qobiliyat elementlarini mustaqil ta’lim topshiriqlari mazmuniga differensial darajalarda singdirish hamda reproduktiv va ijodiy topshiriqlar kombinatsiyasini erkin-ijodli ta’lim muhitida optimallashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot ishi doirasida “Professional ta’lim” yo‘nalishlari va soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan “Pedagogik texnologiya” fanidan darslik, “Pedagogika. Psixologiya” nomli o‘quv qo‘llanma tayyorlangan. Shuningdek, “Andragogika asoslari”, “Ekologik kartografiya” hamda “Geodeziya va zamonaviy geodezik asboblar” fanlaridan amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma chop etilgan.

“Kasbiy kompetentlilik” fanidan elektron darslik ishlab chiqilgan va mazkur elektron darslik uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan DGU 33718-raqamli mualliflik guvohnomasi olingan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga mo‘ljallangan “Ixtisoslik kursi dasturi”, “MICA” (method of improving creative ablitity) hamda “Eskiz chizish” kabi ta’lim metodlari o‘quv jarayoniga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan pedagogikaning zamonaviy yutuqlari asosidagi tahlili, tadqiqot mavzusi va vazifalariga mos keladigan nazariy hamda empirik usullardan foydalanilganligi, iqtisodiy jihatdan samarador va munozarali qo‘llab-quvvatlash tizimi, tajriba-sinovning barcha bosqichlari bo‘yicha tadqiqotlar natijalarini, ularning miqdoriy va sifatga oid ko‘rsatkichlarini tahlil qilinganligi, muallif tomonidan ta’lim jarayoniga tatbiq etish uchun ilgari surilgan nazariy qoidalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, OAK ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ushbu muammo bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari va ulardan olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy oliy ta’lim sharoitida talabalarda kasbiy kompetensiyalar orqali ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning mazmuni va xususiyatlari haqida ilmiy yangiliklarni kashf qilishda mavzu zamonaviylik nuqtayi nazaridan ishlab chiqilgan hamda taqdim etilgan, “kompetensiyaviy yondashuv”, “kasbiy kompetensiya” va “ijodiy qobiliyat” tushunchalariga aniqlik kiritilgan; umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining o‘zaro aloqadorligini ta’minlash nazariyasining metodologik asosi bilan to‘ldirilishi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan oliy ta’lim talabalarining kasbiy tayyorgarlik amaliyotida, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida keng qo‘llanilishi mumkin, chunki ular bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy qo‘llab-quvvatlashning mazmuni, shakllarini ilmiy jihatdan asoslash va tizimlashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida ularning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish asosida kasbiy kompetensiyalarini yuksaltirish bo‘yicha monitoringini olib borishga imkon beradi. Tadqiqot ishida taklif etilayotgan nazariy xulosalar va amaliy ishlanmalar hamda metodlardan kelajakda professional ta’lim va ixtisoslik bo‘yicha soha mutaxassislarining o‘z kasblari yuzasidan qo‘llanmalar yaratish, loyihalar ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish masalalariga amaliy yechim topishda foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik taklif va tavsiyalar asosida:

kompetensiyaviy yondashuv vositasida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari mutaxassislik fanlarining o‘quv-me’yoriy hujjatlarini mazmunan rivojlantirish, resurs va metodik ta’minotni takomillashtirish, mutaxassislik tanlov fanlarining o‘quv-metodik ta’minotini ishlab chiqish hamda professional ta’lim dasturlarini tizimli muvofiqlashtirish asosida ta’minlashga doir takliflar “Pedagogik texnologiyalar” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 6-noyabrdagi 491-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 491249-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada mazkur ishlab chiqilgan darslik talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashishiga xizmat qilgan;

oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish modeli – maqsad, mazmun, jarayon, baholash, natija komponentlar uzviyligida tizimli, kompetentli, faoliyatli metodologik yondashuvlar, tizimli, iyerarxik, rivojlantiruvchi tamoyillarga tayanish hamda raqamlashgan-dasturiy apparatni metodik apparatga mazmunan uzviylashtirish asosida takomillashtirishga doir takliflar Jizzax politexnika institutining ilmiy tadqiqot rejasining OT-F1-49-raqamli “Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” (2017-2021 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan. Natijada mazkur model talabalarning ijodiy qobiliyatlarini mukammallashishiga xizmat qilgan;

bo‘lajak mutaxassislarni kompetensiyaviy yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini talabalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlanganligini baholashning motivatsion, kognitiv, amaliy va kreativlik mezonlarini takomillashtirishga doir takliflar “Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish” metodikasi bo‘yicha “Maxsus kurs dasturi” hamda uni takomillashtirish jarayoni modeli; “MICA” (method of improving creative ablitity) metodikasi; “Eskiz chizish” metodlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 4/17-4/4-7130-sonli ma’lumotnomasi). Natijada raqamlashtirilgan metodik ta’minot talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 3 ta uslubiy ko‘rsatma, 1 ta mualliflik guvohnomasi, 3 ta elektron o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta – 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, boblar bo‘yicha qisqacha xulosalar, tavsiyalar va umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning asosiy matni 159 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligiga asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi O‘zbekiston Respublikasining ta’lim strukturasiga hamda Konsepsiyasiga muvofiq bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida **“Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, talabalarda ijodiy qobiliyatni takomillashtirishning mavjud holati tahlili, kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari va pedagogik shart-sharoitlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kompetensiyaviy yondashuvi asosida ijodkorlik qobiliyatidan samarali foydalangan holda kasbiy pedagogik faoliyatdagi ijodkorlik muammosini o‘rganishda uning tarkibiy komponentlaridan biri mustaqil ta’lim jarayonida shakllanadigan nostandart muammolarni hal qilish ko‘nikmalari ekanligi aniqlandi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchining oliy ta’lim muassasasidagi o‘qish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqishimiz kerak, chunki aynan shu bosqichda uning ijodiy qobiliyati takomillashadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida mustaqil ta’lim va pedagogik faoliyat turlari bo‘yicha talabaning ijodkorlik qobiliyatini takomillashtirishga yo’naltirilgan jarayonlarni tashkil etishda zamonaviy ta’lim tizimida foydalaniladigan ta’lim texnologiyalari sohasidagi eng yaxshi yutuqlariga asoslanish, shuningdek zamonaviy bilim, malakalar va kompetensiyalarni singdirish zarur.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ijodiy qobiliyatning takomillashishiga ko‘p jihatdan mustaqil ta’limda muammoli vaziyatlarni yaratish yordam beradi, chunki u to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijodiy fikrni, shaxslararo ijodiy muloqotni va o‘quv mavzusi materialini o‘zlashtirishda ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Muammoli o‘qitish va mustaqil ta’lim talabalarning yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ijodiy yondashuv bilan ishtirok etishiga, kognitiv mustaqillik va ijodiy fikrlashning rivojlanishiga, ularning motivatsiyasining yuqori darajasiga va bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga imkoniyat yaratadi. Mustaqil ta’limning maqsadi nafaqat o‘zlashtirish, o‘quv jarayoni natijalariga erishish, balki talabaning kognitiv mustaqilligini rivojlantirishga olib keladigan natijalarni olishdan ham iboratdir. Oliy ta’lim muassasalarida “Geodeziya” fani modulini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlardan tashqari mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarining tashkil etilishi o‘qituvchi va talabalarning ijodiy qobiliyatini o‘z ichiga oladigan samarali fikrlashiga ko‘maklashadi.

Tadqiqot ishi jarayonida kompetensiya va ijodkorlik tushunchalarini qo‘llash davomida biz uchun o‘sha mashhur uchta atama: bilim, ko‘nikma, malaka so‘zlari bilan bog‘liqligiga guvoh bo‘lindi. “Kompetensiya” tushunchasi ularning davomi sifatida bo‘lib, rivojlanishiga ko‘ra u quyidagicha ta’riflanadi: mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda mustaqil qo‘llay olish qobiliyatidir.

Aytib o‘tilganlardan kelib chiqqan holda “kompetentlilik” atamasiga quyidagicha ta’rif beramiz – “Kompetentlilik bu – muayyan mutaxassisning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini belgilovchi asosiy mezondir”.

“Kompetensiya” ta’rifiga kelsak, bizning talqinda bu – “yangi qiymat yaratish maqsadida bilimlar manipulyatsiyasi jarayonida divident olishga erishilganlik ko‘rsatkichidir”.

Dissertatsiya ishi davomida tajriba-sinov ishlari olib borilayotgan TIQXMMI MTU, TIQXMMI MTU Buxoro filiali, Jizzax politexnika institutilarining “Profesional ta’lim (Yer kadastri va yer tuzish)” hamda “Geodeziya va geoinformatika” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar aniqlandi.

Tadqiqotimiz davomida talabalarning kommunikativ, o‘yin, ijtimoiy, bilish va ixtisoslik kabi kompetensiyalari o‘rganib chiqildi hamda shu asosida ulardagi ijodiy qobiliyatlarni takomillashtirish ishlari olib borildi.

Bunda bo‘lajak mutaxassislarda yuqorida sanab o‘tilgan kompetensiyalarga qo‘shimcha qilib, asosiy bo‘lgan tayanch, umumiy hamda fanga oid tayanch kompetensiyalarni o‘zlashtirishga doir o‘quv bosqichlarida ijodkorlik qobiliyatini takomillashtirish uchun tegishli fan kompetensiyalarini o‘sish dinamikasi, ya’ni “Blum taksonomiyasi”ga ko‘ra: bilish, tushunish, amaliyotda qo‘llash, tahlil, sintez va xulosa kabi ketma-ketlikdagi o‘quv maqsadlarini belgilab olishi lozim. Bu orqali talabalar ijodkorlik qobiliyatini takomillashtirish bosqichlarida foydalanadigan amaliy mashg‘ulotlardagi o‘quv topshiriqlari, mustaqil ta’limda kompetensiyalarni nazorat qilishda qo‘llaniladigan metodlar, topshiriq turlari hamda ularning murakkablik darajalarida o‘z aksini topadi va bu orqali muammoli vaziyatlarni tashkillashtirishda kasbga oid kompetensiyalarni, ijodiy qobiliyatni takomillashtirishda pedagogik shart-sharoitlarni o‘rganish kabi masalalar maxsus tadqiqot ishi sifatida atroflicha o‘rganilishi lozim bo‘lib qoladi.

Biz bu borada bo‘lajak kadrlarga ijodiy qobiliyatini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni keltiramiz: 1. Ixtisoslik fanlarining o‘quv-me’yoriy hujjatlari (o‘quv reja asosidagi fan dasturlari va ishchi dasturlar).

Bo‘lajak muhandis-pedagoglarning kompetentliligini oshirishda soha fanlarini o‘qitishda majburiy va tanlov fanlaridan tayyorlangan fan dasturi mazmunini yangi ma’lumotlar asosida takomillashtirish, fan(geodeziya)ga doir yangi asbob-uskunalar, texnika hamda texnologiyalarni o‘quv dasturlariga kiritish; dasturlarni takomillashtirishda mehnat bozorining obyektiv talablarini hisobga olish, soha korxonalarini sifatli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish va o‘zaro hamkorlikda dasturlarni ishlab chiqish zaruriyati bor.

2. Kadrlar zahirasi (malakali ixtisoslik fan o‘qituvchilari, o‘quv ustalari).

Ixtisoslik fanlarini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishish uchun talabalarga dars mazmunini aniq, lo‘nda, tushunarli holda aks ettirish, muammolarni oson hal qilishga yordam beradigan malakali pedagoglarni jalb qilish darkor. Bunda o‘qituvchining oddiy topshiriq va hayotiy misollar yordamida talabalarda ijodiy va fikrlash qobiliyatini o‘stirishida ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuqori natijaga erishish kafolatini ta’minlash; ixtisoslik fanlarini o‘qitishda o‘qituvchi mashg‘ulot o‘tkaziladigan joy va sharoitni, eng asosiysi, talabalarning imkoniyati, ehtiyoji, hamkorlikdagi faoliyatini e’tiborga olishi va o‘quv jarayoniga puxta tayyorgarlik ko‘rishini talab etish kerak.

3. Resurs va metodik ta’minot. Axborot hamda texnik resurslar, ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi hamda o‘quv mashg‘ulotlarining dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish; shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi o‘rni va ularning ijodiy qobiliyatlarga ta’sirini kuchaytirish zarur.

4. Majburiy va tanlov fanlarning o‘quv-metodik ta’minoti. Bunda o‘quv-bilish jarayoni mohiyatini ochib beruvchi didaktik vositalarni o‘z ichiga olish; ixtisoslik fanlaridan mutaxassislik ta’lim yo‘nalishi uchun belgilangan “Geodeziya” fanida olib borildigan mashg‘ulotlarda talabalarning qiziqishlari hamda ehtiyojlarini aniqlashga qaratilgan dars mashg‘ulotlarini tashkil etish muhim.

Shu o‘rinda kompetensiyaviy yondashuv asnosida takomillashayotgan **“ijod”** tushunchasi insonning yangi ma’naviy va moddiy boyliklarni yaratish faoliyatini bildirsa, **“ijodkorlik”** esa yangi, o‘ziga xos va ayni paytda ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarni yaratishga yo‘naltirilgan inson faoliyatining alohida shakli hisoblanadi.

Mualliflik yondashuvi sifatida “**ijodkorlik qobiliyati”** – bu raqamlashtirilgan davrda yo‘naltirilmagan axborotlarga boy shaxs qobiliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida ijtimoiylashtirish orqali kreativ samaradorligini oshirishdir.

Shunday qilib, talabalarda muhandislik kasbiga oid kompetensiyaviy yondashuv talabadagi ijodkorlik qobiliyatlarini izchil takomillashtirishda yuqoridagi bosqichlar asosida aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarga ko‘ra amalga oshirilishini taqozo etadi, bundan tashqari, biz tomonimizdan ta’minlangan pedagogik shart-sharoitlar metodik modelni samarali ishlashiga xizmat qiladi.

Dissertasiyaning ishining “**Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ta’lim jarayoni kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish modeli va uning tarkibiy qismlarining mohiyati, takomillashtirish metodikasi hamda rivojlantirishning o‘quv-didaktik ta’minoti haqida so‘z yuritilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish masalasini chuqur tahlil etish asosida ularning ijodiy qobiliyati beshta bosqichli qobiliyat turlari orqali takomillashtirildi: Vaziyatni anglash (hissiy impulsni ushlab turish), Bashoratli tahlil qilish (fikrlash), Oqilona qaror (qaror qilish), Loyihani amalga oshirish va natija chiqarish qobiliyati. Ular to‘rtta mezon: talabalarning motivatsion (aqliy bilish), kognitiv (qiziqish), amaliy va kreativlik mezonlari asosida amalga oshirildi.

“GEODEZIYA” FANI MODULINI O‘QITISH ORQALI TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHLARI

1-bosqich
Vaziyatni anglash (hissiy impulsni ushlab turish) qobiliyati
2-bosqich
Bashoratli tahlil qilish (fikrlash) qobiliyati
3-bosqich
Ratsional qaror(qaror qilish) qobiliyati
4-bosqich
Loyihani amalga oshirish qobiliyati

TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING TARKIBIY-FUNKSIONAL MODELINI LOYIHALASH JARAYONI

Tizimli yondashuv	Faoliyatli yondashuv	Kompetensiyaviy yondashuv
Tizimlashtirish tamoyili	Iyerarxiya tamoyili	Rivojlanganlik tamoyili

TALABALARNING IJODIY QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA AMALIY VA MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH ORQALI ANIQLANGAN IJODIY QOBILIYAT TURLARI

5-bosqich
Natija chiqarish qobiliyati

QO‘LLANILGAN PEDAGOGIK FAOLIYAT TURLARI

“Mustaqil ta’lim”turlari bo‘yicha,“Ustoz-shogird”, “To‘garak”, “Iqtidorli talabalar bilan ishlash”, ”Tyutorlik”.

- maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarga moyillik qobiliyati	**-bilimlarni mustaqil qo‘llay olish qobiliyati**	**1. Ijtimoiy kompetentlilik** -kommunikativ qobiliyat **2. Maxsus (yoki kasbiy) kompetentlilik** **2.1. Shaxsiy kompetentlilik** -o‘z-o‘zini rivojlantirish **2.2. Kasbiy kompetentlilik** -pedagogik qobilyat **2.3. Informatsion kompetentlilik** -axborot bilan ishlash qobiliyati **2.4. Texnologik kompetentlilik** -konstruktorlik qobiliyati **2.5. Kreativ kompetentlilik** -kreativlik qobiliyati

BAHOLASH MEZONLARI

Motivatsion (aqliy bilish)	**Kognitiv (qiziqish)**	**Amaliy va Kreativlik**

1-rasm. Talabalarda ijodkorlik qobiliyatini takomillashtirish algoritmi

Bu jarayon quyidagi 1-rasmda talabalarning ijodkorlik qobiliyatini takomillashtirishga mo‘ljallangan algoritmida kengroq yoritilgan. Ushbu 1-rasm asosida biz tomonimizdan kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish modeli (2-rasm) ishlab chiqildi.

Pedagogik fenomenni tadqiq etishda metodologik yondashuvlar majmuasidan foydalanish eng samarali va ommabop uslub hisoblanadi. Biz tomonimizdan talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning tarkibiy-funksional modelini loyihalash jarayoni tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida amalga oshirildi.

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishda amaldagi yondashuvlar majmuasi asosida ishlab chiqilgan modelning ishlash tamoyillari aniqlandi. Umumiy tamoyillarga texnika oliy ta’lim muassasalarida “Professional ta’lim (Yer kadastri va yer tuzish)” hamda “Geodeziya va geoinformatika” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga qo‘yiladigan obyektiv talablarni aks ettiradiganlar kiradi: tizimlilik, iyerarxik, rivojlantiruvchi.

Biz tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqqan modelimiz beshta komponentdan tashkil topgan: maqsad, mazmun, jarayon, baholash va natija (2-rasm).

Maqsad komponenti ijtimoiy buyurtma va qo‘yilgan maqsadni o‘z ichiga oladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlari takomillashtiriladi.

Mazmun komponenti yondashuvlar, tamoyillar, ijtimoiy va maxsus kompetensiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan. Tadqiqotimizdagi asosiy yondashuv kompetensiyaviy yondashuvdir.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish jarayoni modelida, avvalo, maqsad, ya’ni tashqi bo‘limning o‘rni ahamiyatli bo‘lib, unda ikki shaxs – pedagog va talabaning faoliyatga tayyorgarligi asosiy ahamiyat kasb etadi. Pedagogning tayyorgarligi talabani kompetentli yondashuvga jalb qilishni o‘zida aks ettiradi, talabaning tayyorgarligi esa undagi ijodiy qobiliyatning mukammallashuviga yo‘naltirilgan.

Modelning jarayon komponenti talabaning ijodiy qobiliyatini tarbiyalashdagi eng muhim bosqich hisoblanadi.

Modelning baholash komponentida tajriba-sinov ishlarida talabalarni baholash komponenti, ya’ni motivatsion (aqliy bilish), kognitiv (qiziqish) amaliy va kreativlik kabi baholash mezonlari hamda baholash darajalari mujassam.

Natija komponenti: mustaqil ijodiy qobiliyati takomillashgan bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisidir.

Modelning vazifalari quyidagilar: talabalarda ijodkorlikni takomillashtirishda mustaqil ta’limni uyushtirish va o‘tkazish metodikasini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish; ijodkorlik qobiliyatini takomillashtirishga mo‘ljallangan amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida zamonaviy ta’lim vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini takomillashtirish; o‘qitish, mustaqil ta’limni tashkil etish va o‘tkazish metodikasini qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat.



2-rasm. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish jarayoni modeli

Model asosida erishilgan natijaga ko‘ra kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish to‘laligicha malaka talablari va ta’lim xizmati iste’molchi talablariga javob beradi hamda mustaqil ijodiy qobiliyati takomillashgan bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisini tayyorlashni bashoratlaydi.

Tadqiqotimizda “Professional ta’lim (Yer kadastri va yer tuzish)” va “Geodeziya va geoinformatika” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining ijodiy qobiliyatlari “Geodeziya” o‘quv fanining amaliy va mustaqil ta’lim qismini o‘qitish asosida takomillashtiriladi.

“Geodeziya” o‘quv fanining amaliy va mustaqil ta’lim qismini o‘qitishda foydalaniladigan ta’lim texnologiyalari va metodlari: ma’ruzalar; interfaol keys-stadilar; guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; interfaol ta’lim metodlari.

Mustaqil ta’limni o‘tkazish shakli: mustaqil ta’lim va pedagogik faoliyat turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarning asosiy shakli. “Ijodiy qobiliyatlarni takomillashtirish” o‘rganilayotgan fan bo‘yicha har bir talabaga individual yondashuvni nazarda tutadi. Mashg‘ulot tartibi jadvalga muvofiq individual tarzda o‘tkaziladi. “Geodeziya” fani bo‘yicha 270 soat ajratilgan bo‘lib, 160 soati mustaqil ta’lim uchun ajratilgan. Ta’lim jarayonining davomiyligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Talabalarning mustaqil ta’limi quyidagi turlarda tashkil etilishi lozim: auditoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish; auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; fan (modul) bo‘yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, uy (talabalar turar joylari) da o‘qib-o‘rganish. Bundan tashqari, “Ustoz-shogird” tizimi, “To‘garak faoliyati”, “Iqtidorli talabalar bilan ishlash” faoliyati, “Tyutorlik” faoliyatida muntazam ishtirok etishlari va qatnashishi kiradi.

“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim (Yer kadastri va yer tuzish)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi, fan va ishchi dasturlari mazmunan takomillashtirildi. “Professional ta’lim” kafedrasi tomonidan “Kasbiy kompetentlilik” tanlov fani kiritildi va 150 soat ajratildi. Bugungi kunda u asosiy fan sifatida o‘qitilmoqda.

“Professional ta’lim (Yer kadastri va yer tuzish)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga mo‘ljallangan uslubiy-didaktik ta’minot takomillashtirildi: “Pedagogika texnologiya” nomli darslik, “Pedagogika. Psixologiya” nomli o‘quv qo‘llanma, “Geodeziya va zamonaviy geodezik asboblar” fanidan va “Ekologik kartografiya” fanidan uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

Mazkur ishlab chiqilgan darslik, o‘quv qo‘llanma va uslubiy ko‘rsatmalar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga xizmat qildi.

“Geodeziya” o‘quv fanini o‘qitish ta’lim jarayonida quyidagi an’naviy shakllardan foydalanildi: mustaqil ta’lim, individual loyiha, malakaviy amaliyot. No’ananaviy shakllar: individual, guruhli va jamoaviy ta’lim shakllari hamda passiv, faol va interfaol ta’lim metodi qo‘llanildi.

Professional ta'lim yo'nalishi talabalarini ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi metodlar: “FSMU”, “SCAMPER”, “Tarmoqlar”, “Eskiz chizish”, “Skarabey” va boshqalardan samarali foydalanldi.

- “FSMU” metodi – bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda, o‘quvchi-talabalarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, bilimlarni qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

- “SCAMPER” metodi muammolarni ijodiy hal qilishda yordam beradigan savollar va harakat fe'llari to‘plamidan iborat bo‘lgan usuldir. Jarayon almashtirish, birlashtirish, moslashtirish, o‘zgartirish va tartibni o‘zgartirishdan iborat.

- “Tarmoqlar” metodi (Klasteri). Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u talabalarni biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi.

-“Eskiz chizish” metodi – bu bir vaqtning o‘zida matn va chizmalardan foydalangan holda eslatma yoki eslatma olish shakli. Eskizning o‘zi hech qanday tafsilotlarsiz tezkor eskiz hisoblanishidir. Bu yerda matn va tuzilmani qo‘shish orqali biz eskizni olamiz.

